

Masjidimizda Ramazon shukuhi



20:11 / 30.03.2023 2082

Qur'on tadaburi uchun qulay imkoniyatdan foydalaning!

Azizlar, barchangizni kirib kelgan Ramazoni sharif oyi bilan yana bir bor muborakbod etamiz.

Har yilgidek, bu yil ham Ramazon oyi o'zgacha shukuh bilan kirib keldi. Barchamiz uchun sabr-qanoat, xayr-saxovat mavsumi, Kalomulloh tilovati, xatmi Qur'onlar mavsumi, gunohlardan poklanib, behisob ajru savoblarga erishish, jahannam azobidan najot topish mavsumi boshlandi.

Yurtimizdagi minglab masjidlar qatori, shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf jome' masjidida ham taroveh namozlari o'qilmoqda. Har yilgidek, bu yil ham taroveh namozlari barcha ijtimoiy tarmoqlar orqali onlayn efirga uzatilmoqda. Ammo fazilatli shayx hazratlarining an'anasiga sodiq qolib,

masjidimiz ahli siz azizlar uchun bu borada o'ziga xos yangilikni Ramazon tuhfasini o'laroq taqdim etmoqdalar.

Gap shundaki, bu yildan boshlab taroveh namozlaridagi xatmlar paytida efirda ayni paytda o'qilayotgan Qur'oni Karim oyatlari hamda shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf hazratlarining qalamiga mansub ma'no tarjimalari ham uzatilmoqda.

Shu munosabat bilan barcha qalbi Qur'onga oshno azizlarimizni Qur'on tadabburiga chorlaymiz. Xususan, masjidga kela olmaydigan nuroniylarimizni, imkoniyati cheklangan matonat ahlini, Ramazon kunlarida ikki hissa ajru savobga ega bo'layotgan uy bekalari va barcha opa-singillarimiz xatmi Qur'onga sohib bo'lish bilan birga, oyati karimalarni mus'haf yozuvida o'qib, ularning ma'nolarini ham tadabbur qilishga taklif etamiz.

Alloh taolo barchamizga ushbu Ramazon oyini iymon, ixlos, taqvo va ma'rifat oyi qilsin!

Xatmi Qur'onga, Qur'on tadabburiga marhamat, azizlar!